

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 35 (1096), 2024-yil 17-fevral, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

ANDIJON VILOYATINI IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
IMKONIYATLARDAN FOYDALANIB, AHOLI BANDLIGI TA‘MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-16-fevral kunlari Andijon viloyatida bo‘ldi.



Tashrifning ikkinchi kuni Xonobod shahridagi Yangi hayot mahallasi hayoti bilan tanishishdan boshlandi.

Xonobod mamlakatimizning eng sharqiy hududi. Chegarada joylashgani sababli ilgari yopiq shahar edi. Oxirgi yillardagi o‘zgarishlar, yaxshi qo‘shnchilik siyosati natijasida Xonobod yanada obod va ko‘rkamlashdi. Uning iqtisodiyoti ancha sog‘lomlashib, aholi turmush darajasi yuksala boshladi. Bugun bu yerda turizm, sanoat, meva-sabzavotchilik va xizmatlar rivojlanmoqda.

Yangi hayot mahallasi faollari davlatimiz rahbariga odamlarning turmush tarzi haqida so‘zlab berdi.

Bu mahallada 3 ming 500 dan ortiq aholi yashaydi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab va kollejlarda sifatli ta‘lim uchun sharoitlar bor. Tog‘ yonbag‘ridagi dam olish maskanlari, ishlab chiqarish korxonalari va tomorqa xo‘jaliklarida aholi ish bilan band.

Bundan tashqari, o‘ndan ortiq uy mehmixonasi, yigirmaga yaqin savdo do‘koni, sartaroshxona, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari faoliyat yuritmoqda. O‘tgan yilda mahalladagi yuz nafardan ortiq ishsiz aholi doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirildi. Yana 181 fuqaro o‘zini o‘zi band qilgan.

O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda farmoniga muvofiq, mahalla institutining jamiyatimizda va aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatidagi roli oshirildi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimidan iborat “mahalla yetiligi” tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari ushbu tizim vakillari bilan suhbatlashdi.

— Biz birinchi kundan xalq bilan muloqot, xalqni rozi qilishga kirishganmiz. Shuning uchun mahalla tizimini birinchi bo‘g‘in sifatida rivojlantiryapmiz. Mahalla — fuqarolik jamiyatining asosi. Bu xalqning dardi, ovozi, degani. Mahalladagi davlat vakillari berilgan vakolat va mablag‘lardan foydalanib, dunyoqarashini o‘zgartirib, odamlarni rozi qilishi kerak. Ishonamanki, Yangi hayot mahallasi O‘zbekistonga namuna bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident mahalla guzari, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini ham ko‘zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Xonobod shahri Yangi hayot mahallasida yashovchi Salohiddin Usmonov xonadonida mehmon bo‘ldi.

Oila boshlig‘i rafiqasi Ziyoda opa bilan ikki farzandni voyaga yetkazgan. Hovli obod. Uy zamonaviy qiyofaga ega, tomiga quyosh panellari o‘rnatilgan. Shuningdek, energiya tejamlor alohida istish tizimi barpo etilgan.

So‘nggi yillarda Xonobodda turizm rivojlanmoqda. Infratuzilma yaxshilanib, sayyohlar jalb etilmoqda. Bu imkoniyatlardan foydalanib, xonadonda uy mehmixonasi tashkil etilgan.

S.Usmonov qishloq xo‘jaligi mutaxassisi. Ular qo‘ziqorin yetishtirish bilan ham shug‘ullanadi.

Prezidentimiz bunday omilkorlikni ma‘qullab, boshqa joylarda ham qo‘llash muhimligini ta‘kidladi.

— Har bir mahallaning o‘z imkoniyatlari, an‘analari, odamlarning xohish-istaklari bor. Mahalla uyushmasi va iqtisodiy kompleks vakillari ularni aniqlab, qo‘llab-quvvatlasa, aholini band qilish, daromad manbai yaratish mumkin. Shuning uchun hamma mas‘ullarni quyi bo‘g‘inga tushirib, hududlarni mahallabay rivojlantirishga e‘tibor qarataypmiz, — dedi Prezident.

Shundan so‘ng Xonobod shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Andijon viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalari muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Andijon viloyatida sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, turizm va ijtimoiy sohalar yuksalmoqda. Shu bilan birga, hali foydalanilmagan imkoniyatlar ham ko‘p.

Yig‘ilishda shunday imkoniyatlar ko‘rsatilib, ularni ishga solish bo‘yicha choralar va mas‘ullar belgilandi.

Bu yil Andijonda 190 ta ko‘p qavatli uy-joy qurilib, 7 mingta oila yangi xonadon bilan ta‘minlanishi, Asaka tumanida “Yangi O‘zbekiston” massivi barpo etilishi qayd etildi. Mahallalarni obod qilish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha Andijon tajribasi yaratildi. Ularni meva-sabzavot, chorvachilik, hunarmandchilik, kasanachilik, sanoat, savdo va xizmatga chuqur ixtisoslashtirish bo‘yicha dastur amalga oshirildi. Bu maqsadlarga 850 milliard so‘m kredit resurslari va 50 milliard so‘m subsidiya ajratiladi.

Transport xizmatlarini yaxshilash maqsadida Xonoboddan Asakagacha poyezd qatnovini yo‘lga qo‘yish, Andijondan yurtimizning boshqa shaharlariga poyezd va avtobus qatnovini ko‘paytirish rejalashtirildi. Shuningdek, kichik va mikro GESlar qurish, elektr tarmoqlari va yo‘llarni ta‘mirlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Viloyatda ishsizlik darajasi 7 foizga tushgan. Aholining tadbirkorlikdan olayotgan daromadida 1,5 baravarga oshgan. 225 ming aholi o‘zini o‘zi band qilgan.

Lekin hali 400 ming aholini kambag‘allikdan olib chiqish, bitiruvchi

yoshlar bandligini ta‘minlash zarur. Shu maqsadda ular kasb-hunarga o‘qitiladi, imtiyozli kreditlar berilib, tadbirkorlikka jalb etiladi. Xitoy tajribasi asosida mahallalar chetida issiqxonalar tashkil etilib, ehtiyojmand oilalarga bo‘lib beriladi. Yoshlar axborot texnologiyalari va xorijiy tillarga qo‘shimcha o‘qitiladi.

Andijonda avtomobilsozlik sohasida 12 ta yirik va 160 dan ortiq mahalliy korxona bor. Ularda 17 ming aholi band. Buni yanada oshirish uchun ehtiyoj va butlovchi qismlarni kooperatsiya asosida mahallalarda ishlab chiqarish kengaytiriladi. Bulqoboshida keramik plita, Marhamat va Baliqchida chinni buyumlar korxonalari tashkil etiladi.

Viloyatda ip-kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi. Bu yil 150 million dollarlik bo‘yash va tayyor kiyim ishlab chiqarish loyihalari yakunlanib, 6 mingta ish o‘rni yaratiladi. To‘qimachilik korxonalariga Italiyadan dizaynerlar olib kelinadi. Shuningdek, Oltinko‘l tumanida mebelsozlik kompleksi barpo etiladi.

Murakkab tarkibli dori va tibbiy buyum ishlab chiqarish bo‘yicha 7 ta loyiha amalga oshirildi. Oliy ta‘lim muassasasi bilan birga farmatsevtika klasteri tashkil qilinadi.

Andijon viloyati bilan Xitoy ishbilarmonlari o‘rtasida 3 milliard dollarlik kelishuvlarga erishilgan. Uning 1 milliard dollarini shu yilning o‘zida jalb etish mumkin. Shu maqsadda Andijon tumanida 218 gektarda “Ipak yo‘li” erkin iqtisodiy zonasi tashkil qilinadi. Investirlarga erkin iqtisodiy zonalar uchun belgilangan barcha soliq va bojxona imtiyozlari beriladi. Shuningdek, sanoat zonalaridagi bo‘sh yerlarga 300 million dollarlik loyihalar joylashtiriladi.

Mutasaddilar joriy yilda 2,5 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelib, 45 mingta ish o‘rni yaratish, 1 milliard dollarlik eksportni ta‘minlash rejalarini bayon qildi.

Zamonaviy mehmixonalar va turizm markazlari barpo etilib, 20 ming kishining bandligini ta‘minlash imkoniyati borligi aytiladi. Qishloq xo‘jaligidagi asosiy vazifa hosildorlikni oshirish, eksportni ko‘paytirish va sanoatlashtirish bo‘ladi. Shu maqsadda paxtachilikda 80 sentnargacha hosil beradigan, tola chiqimi 45 foizgacha bo‘lgan Xitoy navi ekiladi. 10 ming gektarda tomchilatib sug‘orish joriy qilinib, yana 20 ming gektar yer lazer usulida tekislanadi. “Tuyamo‘yin”, “Miyani”, “Chinobodsoy”, “Qadim”, “Qator-tol”, “Paxtaobod” kanallari betonlanadi.

Meva-sabzavot yetishtirish uchun oilaviy tadbirkorlik doirasida 100 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratiladi, qurilmalar xarid qilishga subsidiya beriladi, sardaromad ekinlar urug‘i va ko‘chatlari xarajatining 30 foizi qoplanadi.

Oziq-ovqat sanoatiga xorijiy brendlar jalb etiladi. Andijon tumanida yirik agrologistika markazi quriladi. Daryo va zovurlar, ularning atrofi tadbirkorlarga ijaraga berilib, parranda va baliq boqish yo‘lga qo‘yiladi. Marhamatdagi pillachilik klasteri Andijonning hamma tumanlariga namuna bo‘ladi. Yo‘l bo‘ylari, dala, bog‘ va chet tili fanlaridan birini chuqur o‘rganish yoki ishchi va IT kasblarga o‘qish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun maktablarda ustaxonalar tashkil etilib, amaliy mashg‘ulotni tadbirkorlar o‘tkazadi.

Asaka agrotexnologiya texnikumi bilan Andijon qishloq xo‘jaligi instituti o‘rtasida “2+2” dasturi joriy qilinadi. Andijon iqtisodiyot va qurilish institutida boshqaruv va o‘qitish metodikalari yangilanadi.

Viloyat shifoxonalarini rivojlantirib, kardiolo, endo va mikroxirurgiya yo‘nalishida tibbiy xizmatlar eksportini 2 barobar oshirish mumkinligi qayd etildi. Andijon shahridagi bir-biriga yaqin joylashgan 8 ta shifoxonani klaster usulida birlashtirish, Tibbiyot instituti klinikasi negizida ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi tashkil qilish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Prezidentimiz yig‘ilish ulug‘ shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tug‘ilgan kunlarda bo‘lib o‘tayotganiga e‘tibor qaratib, ushbu sana munosabati bilan andijonliklarni tabriklaydi. Andijon shahridagi Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i yangi g‘oyaviy konsepsiya asosida qayta qurilishi ma‘lum qilindi.

Davlatimiz rahbari Andijon shahridagi san‘at maktabiga o‘zbek qo‘shiqchiligiga beqiyos hissa qo‘shgan, O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev nomini berishni taklif qildi. U Musiqi va san‘at kollejiga aylantirilib, grant asosida yangi iste‘dod egallari tarbiyalanadi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar, hokimlar hamda tadbirkorlarning prezident va tashabbuslarini eshitdi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Faxriddin UBAYDULLAYEV,
O‘ZA muxbirlari

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

TANQIDIY TAHLIL, QAT‘IY TARTIB-INTIZOM
VA SHAXSIY JAVOBGARLIK
ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining bosh mezon

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadida barcha sohalarida tub yangilanishlar, keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda mamlakatimiz oldida turgan ustuvor, strategik hamda dolzarb vazifalarni tezkorlik bilan hal qilishda ijro intizomini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, ijro intizomi davlat organlari va tashkilotlarining ish samaradorligini ta‘minlovchi eng muhim omillardan biridir. Bir so‘z bilan aytganda, jamiyat hayotining turli jabhalarida islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, eng avvalo, davlat organlari

va tashkilotlarining barcha bo‘g‘inlarida ijro intizomining yuqori darajada ta‘minlanishiga bog‘liq.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida islohotlarimiz natijasini har bir inson

o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta‘minlash lozimligiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Bu borada yangi ish tizimi joriy etilishi belgilab berilgan.

Shu munosabat bilan Prezidentimizning 2021-yil 10-fevralda “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-mayda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali

faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ularga ko‘ra, qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirish hamda “Ijro.gov.uz” yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy qilindi.

Davomi 3-betda

EKOLOGIK
DIPLOMATIYASamarqand yana global muammoga
yechim topish markaziga aylandi

2

